TAKLIF

Hurmatli _____

Sizni O‘zbekiston kardiologlarining **«Zamonaviy kardiologiya: profilaktikadan yuqori texnologiyalargacha»** nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etishga taklif qilamiz. Konferensiya O‘zbekistonning kardiologiya xizmatining 50 yilligiga va Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining (RIKIATM) yubileyiga bag’ishlangan. Yillik O‘zbekiston kardiologlar konferensiyasi doirasida **III Turkiy davlatlar kardiologlarining Qurultovi** va **O‘zbekiston arterial gipertoniya va yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasi mutaxassislari jamiyatining I Qurultoyi** o‘tkaziladi. Konferensiya **2026 yil 2-3 oktyabrda Toshkentda** bo‘lib o‘tadi.

«Zamonaviy kardiologiya: profilaktikadan yuqori texnologiyalargacha» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi sog’ligni saqlash sohasida tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni almashish uchun noyob platforma taqdim etadi. Ushbu tadbir tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirishga va turkiy tillarda so‘zlashuvchi davlatlar kardiologlari o‘rtasida yurak-qon tomir va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar sohasida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

«Zamonaviy kardiologiya: profilaktikadan yuqori texnologiyalargacha» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida tibbiyotning dolzarb muammolari bo‘yicha ilmiy seksiyalar, simpoziumlar, mahoratr-darslari va yosh olimlar tanlovi o‘tkaziladi:

- «Kardiovaskulyar profilaktika — o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillarini samarali nazorat qilish»;
- «Yurak aterosklerotik va tarkibiy kasalliklarini zamonaviy davolash — profilaktikadan yuqori texnologiyalargacha»;
- «Zamonaviy tibbiyotning interdistsiplinar muammolari: endokrinologiya, onkologiya, pulmonologiya, nefrologiya, gastroenterologiya — komorbid bemorning prognozini yaxshilash yechimlarini izlash»;
- «Amaliyotchi vrachga yordam beradigan raqamli texnologiyalar»;
- «Ayollar salomatligi muammolari»;
- «Klinik tibbiyotda funksional diagnostika va vizualizatsiyaning zamonaviy usullari»;
- Zamonaviy tibbiy uskunalar va farmatsevtika mahsulotlari ko‘rgazmasi.

Yosh olimlar tanlovida yosh ilmiy izlanuvchilar o‘z ilmiy tadqiqotlari natijalarini keng ilmiy jamoatchilikni tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- Tanlovda 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.
- Muallif tanlovga faqat bitta ishni tezis shaklida «Yosh olimlar tanlovi uchun» degan belgi va muallif ma‘lumotlari (F.I.Sh., ish joyi, elektron pochta, aloqa telefoni, ilmiy rahbar F.I.Sh.) bilan taqdim etadi.

TEZISLAR qabul qilish boshlanishi: 2026 yil 20 maydan,
tugash muddati: 2026 yil 10 sentabr.

Tezislarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

- hajmi – 1 bet (A4);
- cheti – chap 3 sm, yuqori – 2 sm, pastki – 2 sm, o‘ng – 1,5 sm;
- shrift – Times New Roman, 12 pt, oddiy, interval – bir qatorli;
- bir muallifdan 3 tezisdan ko‘p qabul qilinmaydi.

Matn:

- sarlavha bosh harflarda. Sarlavhada qisqartmalar qo‘llanilmaydi;
- yangi qatordan mualliflarning F.I.Sh. (ma‘ruzachining familiyasi ostiga chiziladi). Turli muassasalardan bir nechta muallif bo‘lsa, yuqori raqam yordamida har bir muallifning ish joyi ko‘rsatiladi;
- yangi qatordan muassasa (rasmiy to‘liq nomi (qisqartmalarsiz)), shahar, mamlakat;
- majburiy bo‘limlar: kirish; tadqiqot maqsadi; materiallar va usullar; natijalar; xulosalar;
- bo‘lim nomlari qalin shrift bilan ajratiladi;
- tezis matnida qisqartmalarga yo‘l qo‘yiladi, lekin ular birinchi eslatilganda albatta yozib ko‘rsatilishi kerak.

Ushbu minimal mezonlarga javob bermaydigan barcha tezislar ko‘rib chiqilmasdan rad etiladi.

Tezislar tahririy o‘zgartirishlarga tortilmaydi.

Tezislar tili – o‘zbek, qoraqalpoq, rus yoki ingliz.

Tezislar elektron shaklda quyidagi manzilga qabul qilinadi: cardiocentreuz@gmail.com

Tezis topshirish uchun mas‘ul muallifning elektron pochta va mobil telefoni ko‘rsatilishi shart.

Tezislar ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqiladi va faqat ijobiy taqriz olinganda nashrga qabul qilinadi.

Taqriz natijalari tezis topshirish uchun mas‘ul muallifga uning elektron pochta orqali xabar qilinadi.

Tezislar «O‘zbekiston kardiologiyasi» jurnalida bepul nashr qilinadi.

Tezislar 2026 yil 20 maydan qabul qilinadi, tugash muddati 2026 yil 10 sentabr.

Ushbu sanadan (2026 yil 10 sentabr) keyin topshirilgan tezislar ko‘rib chiqilmaydi!

Konferensiya doirasida Yosh olimlar tanlovi o‘tkaziladi.

Pochta manzili: 100052, Toshkent sh., Mirzo-Ulug’bek tumani, Osiyo ko‘chasi, 4-uy, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIKIATM).

Ma‘lumotnoma uchun telefonlar: 998-71-268-94-94, 71-237-38-16, 71-237-55-58

Tashkiliy qo‘mita e-mail: cardiocenter@ssv.uz. cardiocenter@mail.ru

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilish joyi: Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi 107A, AZIMUT mehmonxonasi.

Ro’yxatdan o’tish uchun havola: https://congress.cardiocenter.uz/

RIKIATM direktori
O`zbekiston Respublikasi bosh kardiologi
O`zbekiston kardiologlari assotsiatsiyasi
VitsePrezidenti, professor **X.G. Fozilov**